

BO‘LINMA KOMANDIRLARINING YOSH HARBIY XIZMATCHILAR O‘RTASIDA BARQAROR AXLOQIY-RUHIY HOLATLARNI SAQLASHDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

(Toshkent OUQBYU “Harbiy psixologiya” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi – F.S. Nizamov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “Armiyada ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlarda yuksak ma’naviy fazilatlar, mustahkam iroda, Vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini kamol toptirish, harbiy jamoalarda sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishda qaratilgan tarbiyaviy ishlar tizimini tubdan yaxshilash Qurolli Kuchlarimiz barcha bo‘g‘inlari komandirlarining alohida muhim vazifasidir”.

Belgilab berilgan ushbu ustuvor vazifani amalga oshirish maqsadida guruh, bo‘linma (seksiya, ekipaj, raschet)lar va ular bilan ishlash, xususan yosh harbiy xizmatchilar, ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, kechinmalar, e’tiqodlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular hamda ularning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos xususiyatlar haqida fikr yuritish Qurolli Kuchlar uchun eng dolzarb masalalardandir.

Yosh harbiy xizmatchilarining harbiy xizmat sharoitlariga moslashish jarayonida vzvod komandirlarining o‘rni va roli

Vzvod komandirlari guruh, bo‘linma (seksiya, ekipaj, raschet)ning ichki aloqalari va munosabatlarini tartibga solish uchun shaxsiy tarkibda doimiy ravishda harbiy intizom mohiyatini tushuntirish ishlarini olib borishi lozim. Bu o‘rinda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, shaxsiy tarkib o‘zgarib, rivojlanib turuvchi ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, o‘ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega:

- 1) birinchi bosqichda komandir butun shaxsiy tarkib oldiga o‘z talablarini qo‘yadi;
- 2) komandir talablarining shaxsiy tarkib tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi esa rivojlanishning ikkinchi bosqichini anglatadi;
- 3) bu talablar shaxsiy tarkibning umumiyligi fikriga aylanganda va shaxsiy tarkib o‘z a’zolarining har biridan ushbu talablarni bajarishni so‘raydigan paytda esa rivojlanishning uchinchi bosqichi boshlanadi;

4) navbatdagi bosqichda shaxsiy tarkib talablari ta'sirida har bir harbiy xizmatchi o'z-o'zidan mana shu majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. Ularda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik, tanqid qilish hissi paydo bo'lishi bilan shaxsiy tarkibda rivojlanishning eng yuqori, oliv bosqichiga erishiladi.

Ammo, talab qo'yish shaxsiy tarkib rivojining yagona mezoni emas. Shaxsiy tarkibda jamoa fikri rivojlanishi bilan bu talablar har bir harbiy xizmatchidagi boshqalar oldidagi javobgarlik hissiga aylanadi. Bu narsa harbiy intizomning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Shaxsiy tarkibda harbiy xizmatning mustahkamlanishi va jamoatchilik fikrini rivojlanishiga xos bo'lgan va biz yuqorida sanab o'tgan bosqichlardan o'zlarining individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir harbiy xizmatchi turli darajadagi qiyinchiliklar bilan o'tadi. Buni endigina harbiy xizmatga kelgan yosh harbiy xizmatchi misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Xususan, endigina harbiy xizmatga kelgan yosh harbiy xizmatlarda ko'nikish (adaptatsiya) davrini ruhiy va jismoniy jihatdan me'yorida o'tkazish bo'linma (seksiya, ekipaj, raschet)dagi harbiy intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof-muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar ta'sirida shaxs ruhiy holatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yosh harbiy xizmatchining harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari ta'sir etadi. Ular quyidagilar:

- 1) yosh harbiy xizmatchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;
- 2) ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- 3) harbiy va texnik bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallahlariga yordam berish (harbiy-texnik ko'nikish);
- 4) ularda jang olib borish ko'nikmalarini shakllantirish (jangovar ko'nikish);
- 5) muayyan bir harbiy jamoaga qo'shilish (ijtimoiy ko'nikish) va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, ko'nikishning turli shakllari o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik mavjud. Masalan, yosh harbiy xizmatchilarning jangovar mahoratni egallashi uning bo'linma (seksiya, ekipaj, raschet)dagi ijtimoiy muhitga kirishiga yordam beradi. Bu narsa o'z navbatida ushbu yosh harbiy xizmatchining bo'linma

(seksiya, ekipaj, raschet)dagi obro‘yiga hamda jamoaning unga nisbatan bo‘lgan munosabatiga ta’sir etadi. Va aksincha, yosh harbiy xizmatchining ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlaridagi faolligi uning harbiy texnikani qanchalik muvaffaqiyatli o‘rganishiga hamda unda ishlay olishiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy muhit yaxshi bo‘lgan inoq jamoalarda harbiy mutaxassislikni egallahash jarayonidagi qiyinchiliklar harbiy nizom qoidalari tez-tez buzilib turadigan bo‘linma (seksiya, ekipaj, raschet)lardagiga qaraganda 3-4 marta kam bo‘lar ekan. Yoki, yana bir misol. O‘quv bo‘linmalari bitiruvchilari o‘zлari harbiy xizmat amaliyotini o‘tagan qismlardan boshqa qismlarga xizmatga jo‘natilganda ularda ko‘nikish bilan bog‘liq qiyinchiliklar ancha ko‘p bo‘lgan.

Harbiy xizmat sharoitlariga ko‘nikish jarayoni yosh harbiy xizmatchi va uni o‘ragan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuv ekanligini e’tiborga olsak, uni shaxsiy va tashqi omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillarga ijtimoiy tajriba, harbiy xizmatga munosabat, umumiy ma’lumot darajasi, muayyan mutaxassislikni egallahsga bo‘lgan qobiliyati, temperamenti va xarakter hislatlari kabilalar kiradi.

Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmati, o‘quv-tarbiya jarayoni, ruhiy tayyorgarlik, kichik komandirlardagi rahbarlik usullari va jamoadagi o‘zaro munosabatlar esa tashqi omillar sirasiga kiradi. Harbiy xizmat sharoitlariga ko‘nikish ushbu faoliyatga moyilligi bo‘lgan va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan yosh harbiy xizmatchilarda nisbatan tez sodir bo‘ladi. Aksincha, xizmatgacha bo‘lgan davrda betartib hayot kechirgan yoshlarda bu bosqich qiyinchilik bilan kechadi.

Ta’kidlash joizki, yosh harbiy xizmatchi inoq jamoaga tushsa-yu, harbiy xizmat uni qoniqtirsagina undagi umumiy ma’lumot va texnik qobiliyatlar mutaxassislikni tezroq egallahiga hamda ko‘nikish jarayonining oson kechishiga yordam beradi. Aksincha, mutaxassislik va xizmat vazifalari unga quvonch baxsh etmasa, ko‘nikish jarayoni uzoqqa cho‘zilishi mumkin.Bu erda komandirlar yosh harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi vazifalarni shunday taqsimlashlari kerakki, toki

yosh harbiy xizmatchilar o‘z mahoratlarining ijtimoiy nafini va harbiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligini anglashsin.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, kechagi o‘quvchi, talaba yoki ishchini fuqarolik hayotidan harbiy xizmat sharoitiga birdaniga o‘tkazish har xil ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. To‘g‘ri, tajribali ofitserlarimiz uchun bu sir emas, albatta. Lekin bu bosqich tajribali komandirlar nazorati ostida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki yosh harbiy xizmatchidagi xarakter, qobiliyat va ko‘nikmalar bu davrning qanday o‘tishini belgilab beradi. Shu bois, tajribali komandir yosh harbiy xizmatchining ma’naviy-huquqiy ko‘nikmalarini mustahkamlash va barqaror axloqiy-ruhiy holatini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, biri dilkash, ikkinchisi esa xudbin bo‘lgan harbiy xizmatchilarni olaylik. Dilkash harbiy xizmatchi xizmatga xos bo‘lgan harbiy nizom talablarini va axloq me’yorlarini tezda o‘zlashtirib oladi. Bundaylar jamoa topshiriqlarini ham ishtiyoy bilan bajaradilar va boshqa safdoshlariga bajonidil yordam beradilar. Odatda, ular mustahkam axloqiy-irodaviy xususiyatga ega bo‘ladilar.

Xudbin harbiy xizmatchi esa unga komandirlarning nazariga tushishiga yordam beradigan va uni yuqori mavqega ko‘taradigan ishlar bilan shug‘ullanishi ham tajribali ofitserlarimizga ma’lum. Yana shu ma’lumki, xudbin harbiy xizmatchi ko‘p ham ko‘zga tashlanavermaydigan, har vaqt komandirlar payqayvermaydigan «qora» ishlar bilan boshqalar qatori shug‘ullanishni yoqtirmaydi. Bunday vaziyatda komandirning shaxsiy tarkib bilan ishslash bo‘yicha o‘rinbosari bo‘linma (seksiya, ekipaj, raschet)larda barqaror axloqiy-ruhiy holatni saqlash uchun intizom nizomida belgilangan chora-tadbirlarni ko‘rishi zarur. Asosiy maqsad esa, yosh harbiy xizmatchilarning ko‘nikish jarayonini to‘g‘ri shakllantirib borishdan iboratdir.

Xullas, ko‘nikish jarayonida yosh harbiy xizmatchilar dunyoqarashi, odatlari va umuman ruhiyatida qayta qurishlar yuz beradi. Bu jihatlarni yosh harbiy xizmatchilar ongida singdirish uchun vzvod komandirlaridan ko‘p mas’uliyat va mahorat talab etiladi.

Yosh harbiy xizmatchilarni safga qo‘yishda harbiy qism va bo‘linmalardagi kichik komandirlarning o‘rni va roli

Shu o‘rinda hozirgi yosh harbiy xizmatchilarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. Ular o‘zlaridagi keng dunyoqarash va bilimdonliklari bilan ajralib turadilar. Ularda mehnatga munosabat ijobiy bo‘lib, vatanga muhabbat hissi rivojlangan. Binobarin, yoshlar har sohada mustaqillikka intiladilar, lekin, shuning bilan birgalikda ularga jamoa ta’siriga beriluvchanlik xos. Ulardagi fikr yuritish va faoliyat tarzi tengdoshlariga va atrofdagilarga bog‘liq bo‘lib, boshqalarga o‘zini ko‘rsatib qo‘yish istagi ularda tez-tez paydo bo‘lib turadi. Tajribasiz bo‘lganliklari uchun ham bu harakatlar qo‘pol, agressiv usullar bilan amalga oshiriladi. Bu yoshdagি kishilar atrofdagi voqeа-hodisalarga baho berishda ko‘proq bir yoqlamalikka berilishadi. Bunga sabab ulardagi sabr-toqatning yo‘qligi. Shuningdek, ularga yana tug‘ilib o‘sgan joylariga nisbatan ma’naviy-ruhiy jihatdan bog‘lanib qolish hodisasi ham xos bo‘lib, bu narsa xizmat davrida ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Xulosa tarzida shuni ta’kidlash joizki, yosh harbiy xizmatchilarni safga qo‘yishda harbiy qism va bo‘linmalardagi kichik komandirlar yordamidan foydalanish lozim. Chunki kichik komandirlar bo‘linmada shakllangan an’analarning barqaror tashuvchilari hisoblanadilar. Ularning bilim va tajribalaridan bo‘linma (seksiya, ekipaj, raschet)larni tuzishda hamda yosh harbiy xizmatchilarga biriktirib qo‘yish orqali ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.